

IJTIMOY TARMOQ VA UNING TAHDIDLARI

Murtazinova Zebo Oromiddin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti
fakulteti ingliz tili yo'nalishi 1 - kurs 105-guruh talabasi

Annotatsiya:

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda eng kuchli axborot quroliga aylanib ulgurgan , hamda butun dunyo miqyosida mafkuraviy - ma'naviy tahdidlarni targ'ib etishda muhim omil vazifasini o'tamoqda . Ijtimoiy tarmoq yordamida yoshlar ongi va shuurida tahdidlar amalga oshirilmoqda va buning natijasida yoshlar ma'naviyatini izdan chiqishiga olib kelmoqda . Shu boisdan ham yoshlarimiz o'rtasida ijtimoiy tahdidlar va xurujlarni avj olishini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoq , virtual va vizual muloqot , ma'naviy tahdid.

Ijtimoiy tarmoq - odamlarning muloqot qilish , o'xshash qiziqishlari yuzasidan boshqa odamlar bilan ijtimoiy munosabatlarni yaratish uchun foydalanadigan onlayn platforma deb ta'rif berilgan . Ijtimoiy tarmoq atamasi alohida tushuncha sifatida 1954- yilda J.Barns tomonidan ilmiy manbaalarga kiritilgan.Hozirgi kunda juda ko'plab ijtimoiy tarmoqlar va ularning foydalanuvchilari mavjud .Birgina "Facebook" ijtimoiy tarmog'iga 936 million dan ortiq foydalanuvchi tashrif buyurgan. "Facebook" asoschisi Mark Sukerberg 2015- yil sentabrda BMT bosh kotibi Ban Ki Mun va Germaniya kansleri Angela Merkel ishtirokida o'tgan xalqaro tadbirda internetni yanada kengaytirish rejalari haqida fikrlarini bildirdi. Rivojlangan ya'ni taraqqiy etgan mamlakatlarda aholining o'rtacha 80 foizi internetdan foydalanadi , rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 32 foizni tashkil etadi.O'zbekistonda 11 millionga yaqin odam , ya'ni aholining 38 foizi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqda o'z sahifasiga ega bo'limgan insonni topish anchayin qiyin bo'lgan davrda yashamoqdamiz .Ayniqsa, bu holat yoshlarimiz o'rtasida ommalashib bormoqda . Ma'lumotlarga ko'ra dunyo yoshlari asosiy vaqtining taxminan 50 foizi virtual muloqotga sarflanmoqda . Vaholangki bu holat virtual muloqotning keskinlashuvi va jonli muloqotga bo'lgan ehtiyojning pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda.Bugungi kunda jamiyatimizda o'zining doimiy ko'rishib turadigan yaqinlari bilan ham ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qiluvchi

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st February, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

insonlar ko'pchilikni tashkil qilmoqda. Bugun ma'naviy tahdidlar, asosan , internet tarmog'i orqali amalga oshirilmoqda . Ayniqsa, millatimizga yot g'oya va mafkuralar yoshlar ongini zaxarlamoqda . Buning oqibatida odamlar jabr chekmoqdalar , oilalar buzilib, bolalar yetim qolmoqda . Balog'atga yetgan har bir inson imonini yaxshilab , yaxshi va yomonni farqlashi kerak. Nafsga berilmaslik ilmli bo'lish va xalqiga , millatiga foyda keltirish haqida ko'proq o'ylashi kerak.

